# MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING AMALDAGI XOLATI.

**Maftuna Muhtorova**
*Qo'qon DPI "Maxsus pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi*
**Gulmira Avazxonova**
*Qo'qon DPI Oligofrenopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya**: *Dunyoda bolalarning ma'naviy-siyosiy mavqei, oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash, yosh avlodning huquqlarini himoya qilish tendensiyalarini belgilash, bolalarning huquqqa oid tushunchalarini rivojlantirish, voyaga yetmaganlar hulqida namoyon bo'luvchi salbiy illatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanizlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maxsus ta'lim tizimida bola huquqlarini himoya qilishga har bir bolaga tegishli masala bo'lib, uning huquqiy asoslarini mustaxkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'z:** *BMT, dekloratsiya, ustav, nogiron, tashkilot, qonun, huquq*

Maxsus ta'lim maktablarida o'quvchilarga huquqiy ta'lim berish shart-sharoitlari, o'quv predmetlari mazmuni, DTS va o'quv dasturlari tahlil qilindi. Tahlillarga ko'ra, respublikamizning maxsus ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlar doirasida o'quvchilarga 1-sinfdan 11-sinfga qadar huquqiy ta'lim beriladi. Shuningdek, huquqiy bilimlar boshqa fanlar tarkibiga ham singdirilgan holda o'qitib kelinadi, jumladan: 1-4-sinflarda"Konstitutsiya alifbosi" kursi, "O'qish", "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik" fanlari hamda "Tarbiyaviy soat"lar tarkibiga singdirilgan holda har bir sinfda10 soatdan o'qitiladi. 5-6-sinflarda "Konstitutsiya olamiga sayohat kursi "Vatan tuyg'usi" fani, 7-sinfda "Konstitutsiya olamiga sayohat" kursi, 8-sinfda "0'zbekiston davlati va huquqi", 9-sinfda"Konstitutsiyaviy-huquq asoslari", 10-11-sinflarda "Davlat va huquq asoslari" fanlari o'qitiladi.

O'rganishlar natijasida davlat maxsus ta'lim maktablarida huquq fanlarining mutaxassislar tomonidan o'qitilishini tashkil etish, darsliklarni zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bilan bog'liq muammolar borligi aniqlandi. Maxsus ta'lim maktablarining 1-11-sinflari uchun har haftada bir soat hajmida o'tiladigan tarbiyaviy soatlar mavzulariga bola huquqlariga oid ma'lumotlarni singdirish, maktablarning huquqiy savodxonlik burchaklarida bola huquqlariga oid adabiyotlarni ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. 0'quvchilarga huquqi ta'lim-tarbiya berishda bola huquqlariga oid yangi mavzular kiritish, har bir mavzu oxirida savol va topshiriqlar berish, ularni keng mushohadaga undovchi bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, turli illyustratsiyalar, zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bola

huquqlari haqidagi bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan elektron dars ishlanmasi tayyorlangan.

Bola huquqlariga oid kazuslar, huquqiy-pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali Maxsus ta’lim maktablari oʻqituvchilarida qabul qilish, oʻrganish, bilish, tushunish, amalda qoʻllash natijasida vaziyatni tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish xususiyatlarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Oʻquvchilarda bola huquqlariga oid bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish bosqichlari

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va tarbiyaviy soatlarda “Bola huquqlari - davlat himoyasida”, “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunni bilasizmi?”, “Bizning huquq va burchlarimiz”, “Oiladagi burchlar”, “Bu meniki”, “Bu bizniki”, “Javobgarlik nima?”, “Inson va fuqaro huquq va erkinliklari kafolatlari”, “Inson va fuqarolarning burchlari” kabi mavzularda davra suhbatlari, koʻrik tanlovlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, seminar-treninglarning oʻyin texnologiyasi va interfaol metodlar asosida oʻtkazilishi kutilgan natijalarni berdi.

Shuningdek, oʻquvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish maqsadida “Street Law” (“Koʻcha huquqi” yoki “Oddiy huquq”) loyihasi doirasida maktab yetakchi va sardorlaridan koʻngilli ravishda volontyorlar guruhi shakllantirildi. “Street Law” (“Koʻcha huquqi” yoki “Oddiy huquq”) loyihasining maqsadi maktab yetakchi va sardorlari oʻz tengdoshlariga kundalik hayotda uydan tashqari sharoitda duch kelinadigan huquqiy masalalar yuzasidan ma’lumot berish, bola huquqlarini bilish va huquqiy xarakterdagi munosabatlarda bola huquqlari buzilishining oldini olish, muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish boʻyicha koʻnikma, malakalarni rivojlantirishga qaratildi. Volontyorlar guruhi tomonidan bolalarning yozgi sogʻlomlashtirish oromgohlarida va mahallalarda tashkil etilgan “Konstitutsiyamizda bolalar huquqi”, “Mening huquqim”, “Bizning burchlarimiz” kabi mavzulardagi ijtimoiy loyihalar va ijtimoiy aksiyalar maktab yetakchi va sardorlarida oʻz tengdoshlari oʻrtasida bola huquqlariga oid bilimlarni targʻib qilishga qaratilgan tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida “Bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida”gi 0ʻzbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasiga muvofiq bolaning bepul majburiy Maxsus ta’lim olishida ota-onalar yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslarning majburiyati belgilanganligidan kelib chiqib, ushbu masala oʻrganildi. 0ʻrganish natijasi bu borada ayrim muammolar borligini koʻrsatdi. Jumladan, ota-onalar tomonidan bolalarning ta’lim olish huquqini amalga oshirishda toʻsiq boʻlayotgan bir qator muammolar: oilaviy muhitning nosogʻlomligi; maktabda bolalarga oʻz tengdoshlari tomonidan salbiy ta’sir koʻrsatilishiga nisbatan qat’iy chora koʻrish tizimining mavjud emasligi; ijtimoiy sheriklikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi kabilarning mavjudligi aniqlandi. Mazkur muammolarning mavjudligi bolalarning ta’lim olish huquqi ta’minlanishi yuzasidan monitoring olib borish zaruriyatini koʻrsatdi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada ishtirokchi davlat oldiga bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko‘maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o‘quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati yuklatilganligidan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlari davomida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash muammosini o‘rganish va monitoring olib borish maqsad qilib qo‘yildi. “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 23- moddasiga muvofiq bolaning bepul majburiy Maxsus ta’lim olishida ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning majburiyatini kuchaytirish belgilangan.

Barcha ta’lim muassasalarida “Huquqiy savodxonlik burchak”lari faoliyati o‘rganildi. Ushbu burchak huquqiy adabiyotlar, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali targ‘ibot vositalari, buklet va plakatlar hamda elektron shakldagi tarqatma materiallar bilan jihozlangan. Lekin, mazkur burchaklarda bola huquqlariga oid adabiyotlarning mavjud bo‘lishi e’tibordan chetda qolgan. Shu bois, tajriba-sinov ishlari davomida biz umumta’lim maktablarining “Huquqiy savodxonlik burchak”lariga bola huquqlariga oid quyidagi adabiyotlarni kiritish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1) “Bola huquqlari” bo‘yicha elektron qo‘llanma;

2) “Kundalik odoblar”;

3) “Donishmand bobo o‘gitlari”.

Tizimdagi barcha ta’lim muassasalarida “8 dekabr - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun” hamda “9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni” arafasida “Yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovi” hamda “Konstitutsiya - erkinligimiz kafolati” respublika ko‘rik- tanlovlarini o‘tkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, “Konstitutsiya - mustaqilligimiz va osoyishtaligimiz kafolati”, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - huquq va erkinliklarimiz kafolati”, “Konstitutsiyamiz - yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori” kabi mavzularda davra suhbatlari, uchrashuvlar o‘tkaziladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AFRUZAXONIM, OLIMJONOVA MOXICHEXRA TOSHKENBOYEVA NAFOSATXON XAMDAMOVA, and MUHTOROVA MAFTUNA. "BO ‘LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI." Confrencea 12.12 (2023): 577-588.

2. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

3. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

4. Islomjon, Haydarov, and Tursunova Nilufar. "PRONUNCIATION LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN." E Conference World. No. 3. 2023.

5. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O 'QITISHNING ASOSIY METODI SIFATIDA–TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." HOLDERS OF REASON 1.1 (2023): 36-40.

6. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

7. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

8. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

9. Xabibullo o'g'li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o'g'li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.

10. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.

11. Shavkatjon o'gli, Nabiyev Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.

12. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.

13. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGOPEDIK RITMIKANING AHAMIYATI." Confrencea 12.12 (2023): 169-175.

14. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

15. Azizabonu, Babayeva, and Kabirova Zarnigor. "METHODOLOGY FOR CHECKING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 40-43.

16. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHRIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

17. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND FORMATION OF FUTURE LOGIC THERAPISTS." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

18. Shavkatjon o'gli, Nabiyev Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O 'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.

19. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "STAGES OF DEVELOPMENT OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE." NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal (2023).

20. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "Methods of Pedagogical-Psychological Correction of Future Logic Therapists with Special School Children." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1.10 (2023): 37-40.

21. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 53-60.

22. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 61-69.

23. Azimjon oʻg, Oppoqxoʻjayev Xojixuja. "YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 18-25.

24. Azimjon oʻg, Oppoqxoʻjayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57.

25. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." Development and innovations in science 2.5 (2023): 25-31.

26. Oppoqxo‘jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." Молодые ученые 1.2 (2023): 99-102.

27. Nabiyev, R. Sh. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING FAOLIYAT XUSUSIYATLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 139-144.

28. Makhmudov, Khurshidjon, and Khovodillayev Murodjon. "THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 44-47.

29. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 343-347.

30. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.